



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 11 - avgust

VI-68-141-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

Bulung'ur tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari bo'yicha shu'ba va komissiyasi tomonidan 2022-yil 2-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdag'i "Yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5215-sonli qarori va 2021-yil 9-avgustdag'i "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6275-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 17 yanvardagi "Yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Mehr daftari" tizimini joriy etish chora tadbirlari to'g'risida"gi 26-sonli qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish shu'basi mudirining 2022-yil 2-choragida Bulung'ur tumani Bolalarni himoya qilish masalalari shu'basi tomonidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisobotini tinglab va muhokama qilib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining oltmish sakkizinch sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Bulung'ur tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari bo'yicha shu'ba va komissiyasi tomonidan 2022-yil 2-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish shu'basi mudiri B.Xasanovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Buriboyev), tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish shu’basi mudiri (B.Xasanov) va komissiyasiga:

yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash;

o‘quv-tarbiya muassasalarida sifatli ta’lim va tarbiya jarayonini yo‘lga qo‘yishga, ularning maishiy shart-sharoitlari yaxshilanishiga, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning intellektual, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashish;

yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun ma’naviy-ma’rifiy va madaniy tadbirlarni tashkil etish;

zamonaviy usul va shakllardan foydalangan holda jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk va dunyo qarashi keng yoshlarni shakllantirish, yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni sport turlariga qiziqtirish va jalb etish;

bolalarning ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lishining sabablarini o‘rganish va aniqlangan muammolarni bartaraf etish;

o‘quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan, vasiylikka, homiylikka va oilaga tarbiyaga olingan qizlarni “Mehr daftari”ga kiritib, ularni qiynayotgan masalalarni joyida hal qilishga hamda o‘quv-tarbiya muassasalaridan keyingi hayotida o‘z o‘rnini topishiga har tomonlama ko‘maklashish vazifalari yuklatilsin.

2. Bulung‘ur tumani hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari bo‘yicha shu’basi va komissiyasiga:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи “Yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 17 yanvardagi “Yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Mehr daftari” tizimini joriy etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 26-sonli qarorida belgilangan muhim vazifalar ijrosini ta’minalash;

voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta’minalash;

o‘quvchilarning, ayniqsa, tarbiyasi og‘ir va profilaktik hisobda turgan bolalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning turli to‘garak va sport mashg‘ulotlariga jalb qilinishi, bu boradagi hisobotlarning haqqoniyligini ta’minlash;

amalga oshirilayotgan ishlarni Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyaning yig‘ilishlarida muntazam muhokama qilib, mavjud kamchilik va muammolarni amalda bartaraf etib borish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Otamurodov)ga O‘zbekiston Respublikasi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga asosan har bir hududda faoliyat olib borayotgan hududiy profilaktika inspektorlari va voyaga yetmaganlar bilan ishslash inspektorlari bilan bирgalikda voyaga yetmagan shaxslar o‘rtasida ichkilikbozlik va huquqbazarliklarning oldini olish maqsadida nazoratsiz, tarbiyasi og‘ir bolalar ro‘yxatini shakllantirib, sababsiz dars qoldirayotgan o‘quvchilarning ota-onalari yoki ularni o‘rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan tushuntirish ishlari olib borilib, ularni ma’muriy javobgarlikka tortish choralarini ko‘rish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Buriboyev), tuman Xalq ta’limi bo‘limi (Z.Aliqulova), tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi (F.Xotamov)larga:

tizimda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi ishlarni va voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilik holatlarini tahlil qilish, umumta’lim mакtablarida haftaning har payshanba kuni o‘tkaziladigan profilaktik tadbirlar doirasida hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar haq-huquqlarining himoya qilinishi bo‘yicha doimiy monitoring yuritish;

sababsiz dars qoldirayotgan o‘quvchilarning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan nisbatan tushuntirish ishlarini muntazam ravishda olib borish;

ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya sifatini ta’minlash;

bolalarni kasbiy va sport to‘garaklariga jalb etish, ular o‘rtasida turli ko‘rik tanlovlari o‘tkazish orqali bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilish hamda iste’dodli yoshlar faoliyatini keng targ‘ib qilish, yoshlarda millatlar va dinlararo muomala madaniyati, umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirib borishga

qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Usanova) ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘ribbosari (A.Buriboyev) va tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish shu’basi (B.Xasanov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



S.Astonov